

O'RTA OSIYO TARIXIY-GEOGRAFIK HUDUDLAR RIVOJLANISHINI IQTISODIY OMILARI XUSUSIDA

Kurbanov Muzaffar Ataxanovich

*Associate professor of the Department of History, Urgench State University named
after Abu Rayhon Beruni*

kurbanovmuzaffar1983@gmail.com

Annotatsiya [Abstract]. *Maqolada O'rta Osiyo mintaqasi madaniy-xo'jalik markazlarida temir davri jamiyatini rivojlanishida urbanistik jarayonlar natijalari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar [Key words]. *Asqarov A., Abdullayev U.I., Sobirov Q., Suleymanov R.X., Matbabayev B.X., O'rta Osiyo, Surxon, Sherobod, Ulanbulloqsoy, Murg'ob, Sopollitepa, Jarqo'ton, Uzunqir, Smaraqanda, Dalvarzin.*

Аннотация: *В статье анализируются результаты урбанистических процессов в развитии общества железного века в культурно-экономических центрах Центральноазиатского региона.*

Ключевые слова: *Аскарлов А., Абдуллаев У.И., Сабиров К., Сулейманов Р.Х., Матбабаев Б.Х., Средняя Азия, Сурхан, Шерабад, Уланбулаксай, Мургаб, Сапалли, Джаркутан, Смараканда, Еркурган, Узункир, Дальварзин.*

Kirish [Introduction]

O'rta Osiyo mintaqasi geografik xolatini aks ettirgan tabiiy-iqtisodiy hududlariga odamzod kelib joylashgandan keyin, tabiiy resurslardan foydalanishini barqaror qiladigan qulay geografik, ekologik, tabiiy iqlimi, iqtisodiy manbalari kabi omillarga bog'liq bo'ladi. Ikkinchi xususiyat, aholi son miqdori oshganligi munosabati bilan qo'shni yoki uzoq hududlarga ko'chish zarurati urbanistik jarayonlar bilan bog'liq. O'rta Osiyo tarixiy-madaniy viloyatlarida tosh davridan o'rnashgan ovchilar va termachilarning (tog' g'or makonlari, ochiq manzilgohlar tog' tizmalarida, tekislikda, suv havzalari sohili adog'iga ulanib ketgan tepaliklarda yog'och-ustunli chaylalar qurib o'rnashgan aholining urbanistik jarayonlarga bosib o'tgan o'tmish yo'lining iqtisodiy omillari tarixi uzun.

O'rta Osiyo mintaqasida tarixiy-geografik hududlar bir geografik koordinatda joylashgan emas, shu ma'noda odamzotning o'zlashtirish tadbiri bir tarixiy davr yoki bir xronologik bosqichda kechgan emas. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, yer osti tebranishlari natijasida hosil bo'lgan tog', tog' oldi va tekislik kabi tabiiy-iqtisodiy omillar tabiat inomi ta'sirida vujudga keladi, shu asosda odamzod moddiy ashyolarga ishlov berib kasb-korini rivojlantirib borishi natijasida umumxo'jalik bir xil darajada bo'lgan, ya'ni bir-birini takror qilgan. Mezolit davriga kelganida tog'li va tekislik hududlarda o'rnashgan ovchilarning

xo'jalik sohalarini olib borishida bir-biridan farqlanish xolati yuz beradi. Tog'li hududlarida ovchilik va termachilik, tekislik hududlarda ovchilikning ikki yo'nalishi, ya'ni baliqchilik va yovvoyi hayvonlarni ovlash hamda terimchilik [1. 2019. –B.125-126].

Mazkur jarayon bronza davrigacha davom etgan. Bronza davriga kelganda O'rta Osiyo jamiyatida kechgan tarixiy jarayonlar mazmunidan kelib chiqib, muayyan hududlarni urbanizatsiya jarayonlari shabadalari qamrab olgan. O'rta Osiyo mintaqasi bronza va temir davrida turar-joylar joylashishi, konstruktiv tuzilishi, moddiy madaniyat, aholini joylashishi, xo'jalik-madaniy hududlarda urbanistik jarayonlar natijalarini qarab chiqamiz. Arxeologik adabiyotlarda qayd qilinishicha, Janubiy Turkmanistonning Kopet tog' etaklari va Murg'ob havzasi atroflarida bronza davri birinchi yarmida xo'jalikning barcha sohalarida ixtirolar qilgan ziroatkor aholining son miqdori oshganligi sabab, loy binokorligi bilimni egallagan bir guruh ziroatchi-hunarmandlar Surxon vohasining Sherobod dashtiga, Ulonbuloqsoy sohili etagiga kelib, urbanizatsion jarayonni amalga oshirgan[2. 1973. – C.139]. Demak, Murg'ob vohasidagi ziroatkor aholi vakillari qohin rahbarligida yangi tabiiy-iqtisodiy manbalarga ega bo'lgan hududlarga ega bo'lish harakati asosida yangi urbanizatsion jarayoni vujudga kelgan. Aynan olib borilgan urbanizatsiyaning mazmuni hududni kengaytirish geoiqtisodiy, geostrategik xarakterga ega bo'lgan.

Mil.avv. II ming yillik oxiriga kelganda Sopollitepada aholi sonining oshishi oziq-ovqat muammosining paydo bo'lishi hamda Sherobod daryosi Ulanbuloqsoyning suv ta'minoti kamayganligi bois, qabila sardori o'z kundalik ehtiyoji va manfaatlari uchun geoiqtisodiy g'oyasini amalga oshirish uchun Sherobod daryosining irmog'i bo'lgan Bo'stonsoy atrofiga ko'chib, yangi hududni o'zlashtirib urbanizatsion jarayonni davom ettiradilar[3. 1983. – C.55].

Tarixiy taraqqiyot jarayonlari va ishlab chiqarish kuchlari urbanizatsion jarayonlarni rivojlantirish imkonini beradi. Ta'kidlash kerakki, aholining ma'lum hududda markazlashishi, temir ashyosidan xilma-xil mehnat qurollarining xo'jalikda keng qo'llanilishi yangi hududlarni o'zlashtirish orqali geoiqtisodiy hududlarni kengaytirgan, ular o'z navbatida urbanizatsion ob'ektga aylangan. Mil.avv. VII asrdan boshlab, O'rta Osiyo mintaqasida urbanizatsion jarayonlarni qamrab olishi keng tus olgan.

Arxeologik izlanishlar natijalariga ko'ra, Surxon vohasi, Zarafshon vohasining janubiy va markaziy hududlarida xo'jalik sohalarini olib borgan ziroatkorlar temir ashyosini ixtiro qilib, uni eritib, rang-barang mehnat qurollaridan xo'jalikning turli tarmoqlarida keng foydalanishi globalizatsiya jarayonini tezlashtirib yuboradi. Aholining tabiiy-iqtisodiy manbalar va suvga serob bo'lgan hududlarga markazlashishi natijasida vujudga kelgan shaharcha va shaharlar jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga imkon berishi bilan birga, etnik markazga aylangan. Xuddi shu shaharlar iqtisodiy va harbiy qudratga

aylanganligi siyosiy birlashmalar geopolitik, geoiqtisodiy va geostrategik ustuvor yoʻnalishga aylangan.

Mil.avv. VII-VI asrlarda urbanizatsiya va globalizatsion jarayonlar qamrab olgan madaniy-xoʻjalik markazlar:

1. Surxon vohasining Sherobod, Jarqoʻrgʻon, Shoʻrchi va Bandixon hududlarini urbanizatsiya jarayoni qamrab olgan. (Qiziltepa, Talashkan, Jondavlat, Xayitobod, Bandixon)

2. Janubiy Soʻgʻd: Koson va Kesh-Shahrisabz hududlari (Yerqoʻrgʻon, Sangirtepa, Uzunqir, Daratepa, Chiroqchitepa)

3. Markaziy Soʻgʻd, Smarakanda, Koʻktepa.

Mil.avv. VI asrning ikkinchi yarmi oxiridan boshlab Turonning Janubiy sarhadlarini qamrab olgan urbanizatsiyaning issiq shabadalari Xorazm vohasi va Fargʻona vodiysiga yetib keladi. Fargʻona vodiysida Dalvarzin va Ashqoltepa bunyod qilinadi [4. 1979. – C.5-68, 5. 2000. – B.42, 6. 2000. – B.342]

Xulosa [Conclusion]

Yuqorida qayd qilingan tarixiy maʼlumotlarga asoslanib, quyidagi xulosaga kelish mumkin:

Demak, Oʻrta Osiyo mintaqasi geografik xolati, tabiiy-iqlim sharoiti aholining notekis joylashishi va ishlab chiqaruvchi kuchlari hududlar boʻyicha bir maromda joylashmaganligi neolit jamiyati bagʻrida yuz bergan edi. Urbanizatsiya issiq shabadalarining dastlabki natijalari Turkmanistonning Kopet togʻ etaklarida, mil.avv. XVII asrda Surxon vohasida namoyon boʻlishining asosi esa Margʻiyonada shakllangan edi. Margʻiyonaliklar meʼmorchilik-qurilish va koʻp tarmoqli hunarmandchilik sohasida bilimlarni oʻzlashtirgan aholi bir guruh vakillari Surxon vohasiga joylashib, notanish geografik sharoitga koʻnikib, geoiqtisodiy manfaatlarini amalga oshirganlar.

Sopollitepaliklarning yangi avlodlari geoiqtisodiy vazifalarini yangi hududlarni oʻzlashtirish bilan davom ettirganliklari bois, Sherobod, Jarqoʻrgʻon, Shoʻrchi va Denov hududlari globalizatsiya natijasida yangi etnik makonlarga aylangan.

Mil.avv. VII asrlarga kelganda esa, Oʻrta Osiyo zaminining janubiy, markaziy hududlarini globalizatsiya jarayoni qamrab olishi natijasida urbanizatsion hududlarga aylangan. Oʻrta Osiyoning boshqa hududlarida xoʻjalik yoʻnalishlarini olib borgan qabilalar hayotida hududni kengaytirish zarurati vujudga kelmagan edi. Oʻzbekiston hududining Ustyurt, gʻarbiy Zarafshon, Toshkent va Xorazm vohasi hududlariga mil.avv. VII asrlarda urbanizatsiyaning issiq shabadalari hali yetib kelmagan edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR [REFERENCES]

- [1] Abdullayev U.I. O'rtasiy ibtidoiy jamoa tuzimi va ilk davlatchilik tarixi. – T., 2019.
- [2] Аскарлов А. Сапаллитепа. – Т., 1973.
- [3] Аскарлов А., Абдуллаев Б. Джаркутан. – Т., 1973.
- [4] Сабиров К. Оборонительные сооружения древних поселений и городов Средней Азии (VI тыс. до н. э. – IV в н.э.) // автореф. на соискатель ученый степен кандидат исторических наук. – М. 1979.
- [5] Шамсиддинов М.Х. Генезис культуры Самаркандского Согда // автореф. на соискатель ученый степен кандидат исторических наук. – Самарканд, 2000.
- [6] Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. – Т., 2000.
- [7] Матбобоев Б.Х. Қадимги Фарғонада илк давлатчилик илдизлари // Ўзбекистон тарихи. –Т., 2001.